ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AHMAD YASSAVIY IJODINING RAMZIY TILI VA UNDAGI RAQAMLI TASAVVUF

Sadullayeva Matlyuba Axrorovna,
Osiyo Xalqaro universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Lug'atda ramz «hissiy idrok orqali anglab bo'lmaydigan narsani ifodalovchi aniq obyekt, belgi, timsol, tasvir yoki nishon» deb ta'riflanadi. Ramz an'anaviy ma'noga ega moddiy obyektdir. Eng keng ma'noda u materiyadagi umumqabul qilingan an'anaviy ma'noning muayyan shaklidir. Biroq adabiyotda bu so'zning ma'no doirasi o'zgaradi. Bu o'zgarishning ilk ko'rinishi shundaki, an'anaviy ma'no qat'iy belgilanmagan bo'lib, yozuvchining tasavvuriga qarab o'zgarib turadi. Boshqacha aytganda, ramz mavhum tushunchaning lingvistik tasviridir[1].

Simvolizm obyekt yoki harakatga yangi qiymat yuklaydi. Biroq, u ularning ichki va bevosita qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Simvolik tafak kur bevosita voqelikni parchalaydi. Lekin u buni voqelikni ahamiyatsiz va befoyda holga keltirmasdan amalga oshiradi[2]. Eng keng ma'noda ramz «boshqa narsani aks ettirish yoki ifodalash orqali uni namoyon qiladigan tasvir» degan ma'noni anglatadi.

Turk tilida «simge» shaklida ifodalanadigan bu so'z adabiyotga qadimgi yunon tilidan «sembol» nomi bilan kirib kelgan va Usmonli turkchasida «remiz» deb atalgan. Falsafiy va mifologik adabiyotga ham kirib, «ramz» deb qisqartirilgan bu so'z «birlashtiruvchi unsur» sifatida talqin qilingan. Keyinchalik u empirik fanlar, psixologiya, sotsiologiya, ilohiyot, tasavvuf va tilshunoslik kabi barcha madaniy sohalarda ajralmas tushunchaga aylandi. Har bir fanda ramz o'z konteksti va tizimiga ko'ra «o'ziga xos ma'no» kasb etadi. Shuning uchun «ramz» atamasi qo'llanilganda, u ishlatilayotgan kontekst ham muhim ahamiyatga ega.

Tarixdagi ilk belgilar g'or devorlariga ishlangan rasmlardir. Insoniyat yozuvdan avval suv, daraxtlar, yulduzlar, bulutlar va boshqa shu kabilarni belgilar orqali tasvirlagan. Ular bu shakllarni asrlar davomida g'or devorlariga chizib, so'ngra ularni yozuvga aylantirgan[3]. Belgilar muayyan asosiy xususiyatlarga ega: birinchi va eng asosiy xususiyat – bu o'zidan tashqaridagi bir voqelikni ifodalash va aks ettirish qobiliyatidir. Belgining yana bir xususiyati uning idrok etilishi bilan bog'liqdir. Bu shuni anglatadiki, ideal yoki transsendent narsa belgi timsolida mujassamlashib, obyektivlik kasb etadi va o'z tabiatiga ko'ra ko'zga ko'rinmas bo'ladi[4].

Ramzlar murakkab aloqa vositasi bo'lib, ko'pincha bir nechta ma'no qatlamiga ega bo'lishi mumkin. Bu ramzlarni belgilardan ajratib turadi, chunki belgilar odatda faqat bitta ma'noga ega. Ramzning ma'nosi turli omillar, jumladan, ommaviy qo'llanilishi, tarixi va kontekstual maqsadi tufayli o'zgarishi mumkin. Ramzning tarixi muayyan bir ramzning ko'rinib turgan ma'nosini aniqlashdagi ko'plab omillardan biridir. «Ramz» so'zi oddiy belgidan tortib, murakkab va sirli tasvirlargacha, chalkash hikoyalar va hatto falsafiy dalillargacha bo'lgan har qanday narsani anglatish uchun ishlatilgan.

Tarixiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jamiyatlar juda qadim zamonlardan buyon sonlarga qiziqish bildirgan[5]. Ashyolarning miqdorini ko'rsatish uchun ishlatiladigan sonlar asrlar davomida ramziy ma'nolarga ega bo'lib kelgan va bu hol bugungi kungacha saqlanib qolgan. Qaysi tizimga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, sonlar bir tomondan hayotni ramziy ma'noda ifodalasa, ikkinchi tomondan, o'zlariga yuklangan sirli ma'nolar bilan hayotning mistik va metafizik jihatlariga oid asosiy belgilar vazifasini o'tagan.

Insoniyat madaniyatlari o'ziga xos mafkuralarini, ijtimoiy tuzilmalarini hamda o'ziga xos madaniyatin-

[1] Tökel, Dursun Ali. Letter Symbolism in Divan Poetry. Istanbul: Fatih Sultan Mehmet Vakıf University Press, 2016. – P. 9.
[2] Eliade, Mircea. Images and Symbols. Translated by Mehmet Ali Kılıçbay. Ankara: Gece Publishing, 1992. – P. 215.
[3] Yazar, Tarık; Geçen, Fahrettin. Universal Language and Artistic Symbolism in Visual Arts. International Journal of Social Research, 2018, vol. 11, no. 61, pp. 556–567.
[4] Demirel, Şener. Symbol, Symbolic Language, and the Symbolic Elements in the First 18 Couplets of the Masnavi. Turkish Studies, 2012, vol. 7, no. 3, pp. 915–947.
[5] Atabek, Reşat. An Overview of Number Symbolism. Istanbul: Mimar Sinan Publishing, 1987. – P. 215.

ing jihatlarini ifodalash vositasi sifatida ramzlardan foydalanadi. Shu bois ramzlar insonning madaniy kelib chiqishiga ko‘ra turli ma’nolarga ega bo‘ladi. Ramzning ma’nosi ramzning o‘zida mavjud emas, balki madaniy jihatdan o‘rganiladi. Geynrix Zimmer ramzlarning tabiati va abadiy ahamiyati haqida shunday deydi: «Tushunchalar va so‘zlar, xuddi vahiylar, marosimlar va tasvirlar kabi ramzlardir; kundalik hayotning odob-axloq qoidalari va urf-odatlari ham shunday. Bularning barchasi orqali transsendent haqiqat aks etadi. Bularning bari bir talay metaforalar bo‘lib, ular turlicha ifodalansa-da, ko‘p shaklga kirsa-da, so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan, ammo anglab yetilmaydigan narsani aks ettiradi hamda unga ishora qiladi. Ramzlar ongni haqiqatga bog‘laydi, lekin o‘zlari haqiqat emas, shu bois ularni o‘zlashtirib olish xomxayoldir. Har bir sivilizatsiya, har bir davr o‘zining ramzlarini o‘zi yaratishi kerak».

Yassaviy ijodidagi simvolizm va uning ma’naviy ahamiyati o‘rganiladi.Yassaviy ijodida eng muhim simvol va obrazlar quyidagilardan iborat: **yo‘l** – insonning ma’naviy yo‘lini, ruhiy o‘sishini ifodalaydi. Yo‘l tasavvufiy ma’noda, ilohiy haqiqatga erishish uchun o‘tishi kerak bo‘lgan yo‘ldir.

Aqlim ketdi, boshim qotti, nechuk oytoy?
Rahmon egam, aro yo‘lda qoldim mano[1].

Bu misolda Yassaviy insonning ma’naviy yo‘lini tanlash haqida fikr yuritadi. Bu odatda yuqoriga, ilohiy haqiqatga erishish uchun harakat qilishni anglatadi.

«Insoniyat kundalik hayotda sonlardan foydalanishga ehtiyoj sezgan va sonlar bilan tabiat-koinot o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuzatish hamda anglashni boshlagan paytdan e’tiboran, sonlar barcha madaniyatlarda juda muqaddas sanalgan»[2].

Suv – hayot manbayi, yangilanish va tozalanish ramzi. Ahmad Yassaviy ijodida suv obrazi ko‘plab she’rlarida muhim rol o‘ynaydi. Suv ko‘pincha ruhiy poklanish va ma’rifat darajasiga erishishni anglatadi.

Ul daraxtning aslin bilsang, Hudin ermish,
Tafrid, tajrid chashmalari suvdin ermish[3].

Ming yillar davomida insoniyatni o‘ziga jalb qilib kelgan sonlar ramziyligi Pifagor ta’limotida sonlar tasavvufi sifatida namoyon bo‘ldi. Bu ta’limotga ko‘ra, sonlar o‘zlari tashkil etgan narsalarning xarakteriga ta’sir qiladi va Xudo bilan yaratilgan dunyo o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Sonlarning yashirin ma’nosi va ular bilan bog‘liq bilimlar xalq madaniyati, adabiyoti, me’morchiligi va musiqasida aks etadi. Bu hol eng ibtidoiy e’tiqodlardan tortib ilmiy tadqiqotlargacha, deyarli barcha sohalarda namoyon bo‘ladi. Masalan, uch, to‘rt, besh, yetti, to‘qqiz va qirq kabi sonlarga yuklatilgan maxsus ma’nolar ertaklar, dostonlar va maqollarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Badiiy matnlarda qo‘llaniladigan til kundalik so‘zlashuv tili chegarasidan tashqariga chiquvchi boylikka egadir. Muallif o‘z asarini jo‘nlikdan qutqarish uchun ramziy tilga murojaat qiladi. Ayniqsa, she’riyatda bu hol yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida raqamlar ramziyligi keng qo‘llanilgan. Uning «Devoni hikmat» asari tahlil qilinganda, unda 90 xil raqamdan foydalanilgani aniqlangan. U quyidagi sonlarni faol qo‘llagan:

– bir, ikki, to‘rt, besh;
– yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n;
– qirq, oltmish, oltmish uch;
– yetmish, yuz, uch yuz oltmish;
– to‘rt yuz qirq to‘rt;
– ming, ming bir, o‘n sakkiz ming;
– o‘ttiz uch ming, ellik ming, yetmish ming, yuz ming.[4]

Bu sonlar turli tasavvufiy tushunchalar bilan bog‘langan holda ishlatilgan. Yassaviy, ayniqsa, toq sonlarga ko‘proq e’tibor qaratgan. Bu hol «Alloh birdir va U toqlikni yaxshi ko‘radi» hadisiga asoslanadi.

Shuningdek, uning «Yoshnoma» hikmatlarida insonning 1 yoshdan 63 yoshgacha bo‘lgan hayoti bosqichma-bosqich tasvirlangan.

Har bir songa singib ketgan, barcha sonlarning umumiy o‘lchovi bo‘lgan va barcha sonlarni o‘zida birlashtirgan son birdir. Birlik – qutblanmagan mavjudlikning asl Mohiyati, ikkinchisisiz ilohiy timsoldir[5]. Sonlar va shuning uchun mavjudotlar birdan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, agar son narsalarning mohiyati bo‘lsa, unda sonning mohiyati ham bir bo‘ladi[6]. Barcha sonlar birdan kelib chiqqani kabi, barcha ko‘payishlar ham yagona Yaratguvchidan kelib chiqadi[7]. Shu nuqtayi nazardan, bir sonlarning eng muqaddasidir. Pifagor (miloddan avvalgi 570-495) birni harakatsiz mavjudot deb hisoblagan va bir

[1] Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan na’munalar). – Toshkent: Movaraunnahr, 2004. – B. 5-76.
[2] Zimmer, Heinrich. Myths and Symbols in Indian Art and Civilization. Edited by Joseph Campbell. Princeton: Princeton University Press, 1992. – 304 p.
[3] Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan na’munalar). – Toshkent: Movaraunnahr, 2004. – B. 5-76.
[4] Yassaviy, Ahmad. Devoni Hikmat. Tuzuvchi: Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan. – Toshkent: Navro‘z, 2018. – 360 b.
[5] Schimmel, Annemarie. The Mystery of Numbers. Istanbul: Kabalcı Publishing, 1998.- P.51-52
[6] Weber, Alfred. History of Philosophy. Translated by H. Vehbi Eralp. – Istanbul: Sosyal Publishing, 1998. – P. 25.
[7] Nasr, Seyyed Hossein. Science and Civilization in Islam. Translated by Nabi Avcı et al. – Istanbul: İnsan Publishing, 2011. – P.145.

barcha mavjudotlarning unsuri va tamoyili degan qarashni qabul qilgan. Yunon mutafakkirlari singari, Plotin (milodiy 270-yilda vafot etgan) ham birni Xudoga teng deb hisoblagan[1]. Ko‘pgina madaniyatlarda birlik tushunchasi ilohiylikning ideal ramzi sifatida qaraladi[2]. Islom olamida birlik tushunchasiga, iymon kalimasidan (kalima-i shahodat) boshlab, favqulodda ahamiyat berilgan va birlik g‘oyasiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday og‘ish qat’iyan rad etilgan[3]. Yassaviy bu fikrni o‘zining «Hikmatlar»ida «Men Birman va Men Borman» va «yagona Xudo» degan so‘zlar bilan ifodalagan:

Agar men «Sen mening panohimsan» deb yo‘lga chiqsang,
Yagona va Bor bo‘lgan Zot yo‘limni ochgaymi?
Zulmat va shubha qoplagan ko‘nglim,
Ma’rifatga to‘lib, duru gavharlar sochgaymi[4].

«Bir» so‘zi Qodir Tangrini ramziy ifodalaydigan hikmatlardan tashqari, bir raqami son ma’nosida ham qo‘llaniladi. Yassaviy buni «bir oh», «bir soat» «bir kun», «bir ko‘k qush», «bir hovuch tuproq», «bir harf», «bir nafas» iboralari bilan ifodalagan.

Ahmad Yassaviy ijodida raqamlar oddiy hisob birliklari sifatida emas, balki chuqur semantik va tasavvufiy yuklamaga ega bo‘lgan ramziy vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Uning hikmatlarida qo‘llanilgan sonlar ko‘pincha ko‘rinadigan (zohiriy) ma’nodan tashqari botiniy qatlamni ham ifodalaydi. Shu jihatdan, Yassaviy poetik tizimida raqamlar ikki darajali semantik tuzilishga ega: birinchisi – lingvistik va kontekstual ma’no, ikkinchisi – tasavvufiy va metafizik ma’no.

Yassaviy ijodida raqamlarning qo‘llanishi tasodifiy emas, balki aniq konseptual tizimga asoslangan. Masalan, bir soni (1) ilohiy birlik – tavhid g‘oyasini ifodalasa, uch (3) va yetti (7) kabi sonlar kosmik tartib, ruhiy kamolot bosqichlari va tasavvufiy sayr-u suluk jarayonlarini bildiradi. Qirq (40) soni esa ko‘proq riyozat, poklanish va ruhiy yetilish davri sifatida talqin qilinadi. Bu kabi sonlar orqali Yassaviy murakkab tasavvufiy g‘oyalarni sodda va xalqchil shaklda ifodalashga erishadi[5].

Ayniqsa, oltmish uch (63) sonining alohida ahamiyat kasb etishi diqqatga sazovordir. Bu son Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ning umr davomiyligi bilan bog‘liq bo‘lib, Yassaviy tomonidan o‘zining hayotiy va ruhiy chegarasi sifatida qabul qilinadi. Uning 63 yoshdan so‘ng yer osti hujraga kirishi tasavvufiy ramz sifatida «dunyoviy hayotdan voz kechish» va «ruhiy hayotga o‘tish»ni anglatadi. Bu hol raqamning biografik, diniy va mistik qatlamlarning kesishgan nuqtasiga aylanishini ko‘rsatadi.

Yassaviy tomonidan toq sonlarning ustun qo‘llanishi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Bu hodisa islomiy aqidadagi «toq»lik tushunchasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ilohiy birlik va mukammallikni anglatadi. Toq sonlarning ko‘proq ishlatilishi shoirning diniy-estetik qarashlarini aks ettiradi va uning poetik sistemasida muhim strukturaviy element sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, «Devoni hikmat»da uchraydigan katta sonlar (masalan, ming, ming bir, o‘n sakkiz ming, yetmish ming va boshqalar) ko‘pincha real miqdorni emas, balki cheksizlik, ulug‘lik va ilohiy qudratni ifodalovchi giperbolik ramzlar sifatida qo‘llaniladi. Bu esa Yassaviy tilida raqamlarning kvantitativ emas, balki sifat jihatdan semantik kengayishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

«Yoshnoma» hikmatlarida esa raqamlar vaqt va hayot falsafasini ifodalovchi diskursiv vosita sifatida ishlatiladi. 1 yoshdan 63 yoshgacha bo‘lgan hayot bosqichlarining ketma-ket tasviri insonning jismoniy emas, balki ruhiy kamolot yo‘lini aks ettiradi. Har bir yosh bosqichi alohida ma’naviy holatni bildiradi va bu orqali Yassaviy inson hayotini tasavvufiy sayohat sifatida talqin qiladi.

Yassaviyning she’rlarida turli madaniyat va dinlarda uchramaydigan, faqat islom doiralaridagina ma’lum bo‘lib, qo‘llaniladigan sonlar va ular ramziy ifodalagan tushunchalar ham mavjud. «To‘rt» xalifalar sonini anglatadi; «besh» bir kunlik namoz vaqtlari sonini bildiradi; «yetti» qabrda so‘roq-savol boshlanadigan vaqtni hamda do‘stlar, qarindoshlar va tanishlar uzoqlasharkan, bosgan qadamlari sonini ifodalaydi; «oltmish uch» – Payg‘ambar vafot etgan yosh; «qirq» esa g‘oyib eronlar (chiltanlar)ni anglatib, shu sonlar qatoriga kiradi.

Yassaviy ijodida raqamli ramziylik ko‘p qatlamli semantik tizimni tashkil etadi. Bu tizim orqali shoir o‘zining tasavvufiy qarashlarini, ilohiy haqiqat haqidagi tushunchalarini va insonning ruhiy kamolot yo‘lini ifodalaydi. Raqamlar bu yerda nafaqat stilistik vosita, balki konseptual va gnoseologik kategoriya sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois, Yassaviy hikmatlarini to‘liq anglash uchun ularning raqamli-semantik strukturasini chuqur tahlil qilish zarur.

Rezyume. Ushbu maqola Ahmad Yassaviy ijodidagi sonlar ramziyligini tahlil qiladi. «Devoni Hikmat» va

[1] Atabek, Reşat. An Overview of Number Symbolism. – Istanbul: Mimar Sinan Publishing, 1987. – P. 28-30.
[2] Schimmel, Annemarie. The Mystery of Numbers. Istanbul: Kabalcı Publishing, 1998. – P. 53.
[3] Atabek, Reşat. An Overview of Number Symbolism. – Istanbul: Mimar Sinan Publishing, 1987. – P. 29
[4] Yassaviy, Ahmad. Devoni Hikmat. Tuzuvchi: Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan. – Toshkent: Navro‘z, 2018. – 360 b.
[5] Yassaviy, Ahmad. Devoni Hikmat. Tuzuvchi: Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan. – Toshkent: Navro‘z, 2018. – 360 b.

«Yoshnoma» qismida raqamlar inson hayotining bosqichlari, ruhiy sayr va koinot tartibini ramziy tarzda ifodalaydi. Toq sonlarning ustunligi diniy va tasavvufiy ahamiyatni ko‘rsatadi. Natijada sonlar ramziyligi Yassaviy ijodida uslubiy va konseptual vosita sifatida qadrlanadi.

Resume. The article describes number symbolism in Ahmad Yassaviy’s work. In «Devoni Hikmat» and the «Yoshnoma» section, numbers symbolically represent stages of human life, the spiritual journey, and cosmic order. The prevalence of odd numbers emphasizes their religious and Sufi significance. Number symbolism thus serves both stylistic and conceptual functions in Yassaviy’s work.

Резюме. В статье описывается символика чисел в творчестве Ахмада Яссави. В «Devoni Hikmat» и разделе «Yoshnoma» числа символически отражают этапы жизни человека, духовное путешествие и порядок мироздания. Преобладание нечётных чисел подчёркивает их религиозное и суфийское значение. Символика чисел выполняет как стилистическую, так и концептуальную функцию в творчестве Яссави.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ARAB TILIDA ENANTIOSEMIYA HODISASI: SEMANTIK TABIATI VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o‘g‘li,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi dotsenti v.b.

Arab tilshunosligida enantiosemiya (azdad so‘zlar) hodisasiga doir bahslar til va ma’no o‘rtasidagi munosabatni qanday tushunish kerakligi haqidagi nazariy savollar bilan bevosita bog‘liq. Chunki bir leksik birlikning ikkita zid ma’noda qo‘llanishi haqidagi faraz, aslida, til birligi va ma’no birligi o‘rtasidagi tabiiy bog‘liqlik masalasini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Shu sababli enantiosemiya hodisasi arab semantikasi tarixida oddiy lug‘aviy kuzatish emas, balki til tabiati haqidagi chuqur ilmiy munozaraning markaziy ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Klassik arab tilshunos olimlari ushbu hodisani tavsiflashda ikkita asosiy yo‘nalishga ajralgan bo‘lsalar-da, yondashuvlar ichki jihatdan ham mutlaqo bir xil emas. Enantiosemiyani qabul qilgan tilshunoslarning o‘zlari ham barcha misollarni teng darajada ishonchli deb qabul qilishmagan. Ayrimlari hodisani kengroq talqin qilgan, ayrimlari esa faqat aniq ma’no va ishonchli rivoyat bilan tasdiqlangan leksemalarni haqiqiy azdad sifatida qayd etishgan. Xuddi shuningdek, bu hodisani inkor qilganlarning hammasi uni mutlaq ravishda rad etmay, enantiosemiyani mustaqil semantik hodisa sifatida emas, balki dialektlar tafovuti, ko‘chma ma’no, majoz, tarixiy ma’no o‘zgarishi yoki talaffuz va vazn farqlari bilan izohlashga urinishgan.

Sibavayhdan boshlangan lafz va ma’no o‘rtasidagi munosabatni umumiy tasniflash nazariyasi keyingi davr qarashlariga zamin yaratdi[1]. Azdad hodisasini tushunish uchun avvalo arab tilshunosligidagi mushtarak lafz, sinonimiya, zidlik va dalolat nazariyalarini bir-biridan ajratib olish zarur bo‘ladi. Chunki azdad mushtarakdan o‘sib chiqqan bo‘lsa-da, undan o‘zining keskin qarama-qarshilik xususiyati bilan farqlanadi. Shu jihatdan qaralganda, enantiosemiya (azdad) semantik maydon ichida markaziy o‘q bo‘ylab ikki qarama-qarshi qutb hosil qilgan hodisa

[1] Sibavayh. Al-Kitāb. – Qohira: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1988.